



## **Surxondaryo viloyati**

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**


*2021- yil yanvar-iyun (dastlabki ma’lumot)*

Surxondaryo viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi yanvar-iyun oylarida 2358,1 ming so‘mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Termiz shahrida 3335,6 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 141,5 %), Jarqo‘rg‘on tumanida 2685,6 ming so‘mni (113,9 %), Oltinsoy tumanida 1839,7 ming so‘mni (78,0 %), Sherobod tumanida 1857,1 ming so‘mni (78,8 %), Sho‘rchi tumanida 1945,3 ming so‘mni (82,5 %), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)  
2021- yil yanvar-iyun (dastlabki ma’lumot)*





**Surxondaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

**2021- yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)**

	<b>2020- yil</b>	<b>2021- yil</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>2 093,2</b>	2358,1	112,7
<b>Termiz sh.</b>	2 600,5	3335,6	128,3
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	1 715,4	1839,7	107,2
<b>Angor</b>	1 799,7	1987,9	110,5
<b>Bandixon</b>	2 018,5	2036,7	100,9
<b>Boysun</b>	1 909,2	2144,8	112,3
<b>Muzrabot</b>	1 775,5	1924,8	108,4
<b>Denov</b>	1 932,0	2077,6	107,5
<b>Jarqo'rg'on</b>	2 576,9	2685,6	104,2
<b>Qumqo'rg'on</b>	1 910,5	2004,5	104,9
<b>Qiziriq</b>	1 925,9	2072,0	107,6
<b>Sariosiyo</b>	2 126,2	2234,7	105,1
<b>Termiz</b>	1 848,0	2006,2	108,6
<b>Uzun</b>	1 835,9	2018,9	110,0
<b>Sherobod</b>	1 682,2	1857,1	110,4
<b>Sho'rchi</b>	1 727,6	1945,3	112,6



**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha taqsimlanishi**

**Sanoatda** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2549,7 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 0,3 % ga pasaydi.



➤ **Qurilish sohasida** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3190,2 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 10,5 % ga oshdi.

➤ **Savdo sohasida** o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2144,9 ming so‘mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 7,3 % ga pasaydi.



➤ **Tashish va saqlashda** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3487,0 ming so‘mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 21,3 % ga oshdi.



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

- **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2737,6 ming so'm ga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 9,2 % ga oshdi.



- **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4343,7 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 16,3 % ga oshdi.



- **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2095,5 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 11,4 % ga oshdi.



- **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1901,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 6,6 % ga oshdi.

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

- **San’at, ko‘ngil ochish va dam olish** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1916,2 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 1,4 % ga pasaydi.



- **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2522,4 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 17,1 % ga oshdi.


➤ **2021- yil yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2358,1 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etgan.**

➤ **O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 112,7 % ga o‘sgan.**



## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-iyun oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz,)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining

Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil 1- fevraldan 747300,0 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi  
tel: (76) 225-65-60**